

## SODDA GAP VA UNI O‘QITISHNING INNOVATSION TA’MINOTINI YARATISH

**Eshpo‘latov Bobomurod Muzaffar o‘g‘li,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi*

*3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida ona tili ta’limini samarali tashkil etish, xususan, sintaksis doirasidagi o‘quv materiallarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tilshunoslikda sodda gapning metodik va nazariy asoslari, substansial yondashuv orqali tahlil qilinadi. Muallif hozirgi darsliklardagi mashq va topshiriq atamalarining noto‘g‘ri qo‘llanishi, ularning farqlari, pedagogik yondashuvlar asosida sintaksis materiallarini qanday yangicha talqin etish lozimligi haqida fikr yuritadi. Sintaksisni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda grammatik savodxonlik, adabiy talaffuz va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati asoslab berilgan. Maqolada mavjud ilmiy manbalar va darsliklar tahlili asosida sintaksis bo‘limi ta’limining amaliy samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, sintaksis, sodda gap, mashq, topshiriq, adabiy talaffuz, mustaqil fikrlash.

### **KIRISH**

Respublikamizda ona tili o‘qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi sintaksis doir o‘quv materiallari mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarda adabiy tildan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, va buning natijasida grammatik, punktuatsion, uslubiy va imloviy savodxonlikni oshirish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Sintaksisni o‘qitish orqali o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va

jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”<sup>1</sup>, – deb ta’kidlanishi ona tili ta’limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo’yadi. Shu ma’noda umumiy o’rta ta’lim tizimida fonetika bo’limini o’qitish orqali o’quvchilarda nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarni, xususan, adabiy talaffuz ko’nikmasini to’la shakllantirish, imloviy savodxonlikni rivojlantirish, so’z boyligining oshishiga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o’rgatish uchun sintaksis doir o’quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish zarurati mavjud.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O’zbek tilshunosligida sintaktik hodisalarni o’rganish o’tgan asrning 30-yillarida jiddiy tusda olib, bu borada bugungi kunda bir necha mustaqil yo’nalishlarga aylangan turli sintaktik nazariyalar vujudga keldi<sup>2</sup>. Bu mustaqil nazariyalarning har biri o’z tadqiq manbasiga ega bo’lib, o’ziga xos tadqiqot usullari va metodologik tayanchlari mavjud. Natijada ular tomonidan qo’lga kiritilgan ilmiy yutuqlar ko’p hollarda bir-biriga zid holatlarni yuzaga keltirdi. Bu tabiiy bo’lib, mazkur yo’nalishlar bo’yicha olib borilgan tadqiqotlarda, aytilganidek, serqirra mohiyatning turli tomonlari ochilgan, har bir yo’nalish xulosasiga ana shu metodlar va tadqiqotchilar tomonidan ko’zda tutilgan maqsad-u vazifalar asosida munosabatda bo’lish ularni xolis baholash imkonini beradi.

O’zbek tilining sintaktik qurilishi va uning xususiy muammolaridan bo’lgan sodda gap masalasi formal tahlil usullari asosida ilmiy talqin qilingan bo’lishiga qaramay, substansial asoslarda o’rganilmadi. Bir qarashda gapning eng kichik qurilish qolipini maxsus tadqiq qilgan M. Abuzalova<sup>3</sup>, sodda gapning o’qitilishi bo’yicha ham ko’plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo’lib, bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish uchun qoniqarli natija bermay qo’ydi. Shuningdek, qo’shma gaplarni mazkur tadqiq tamoyillari asosida

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O’zbekiston, 2016. –14-b.

<sup>2</sup> Ne’matov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro: NS, 2003. – B. 21.

<sup>3</sup> Abuzalova M. O’zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Buxoro, 1994. – B. 22.

o'rgangan R. Sayfullayevaning semantik-funksional shakllangan so'z-gaplarni maxsus tadqiq qilingan<sup>4</sup> ishlari ham mavjud bo'lib, ushbu tadqiqotlar qimmatli ahamiyatga egadir.

R. Bobokalonov ishlarida ushbu masala kun tartibiga qo'yilgandek tasavvur uyg'otadi. Biroq o'zbek tilida sodda gap – alohida hodisa. Uning bir ko'rinishi gapning eng kichik qurilish qolipiga muvofiq kelsa, so'z-gap boshqa bir ko'rinishidir. Ayrim ikki tarkibli gap ham yig'iq (sodda) gap maqomida bo'ladi. Lekin ularning birortasi ham alohida olinganda sodda gap mohiyatini tashkil eta olmaydi. Shu boisdan sodda gapni gapning eng kichik qurilish qolipi, so'z-gap, ikki tarkibli gap, shuningdek, qo'shma gap kesimi mohiyatidan kelib chiqib tadqiq qilish va shu asosda tegishli xulosa berish o'zbek tili substansial sintaksisining navbatdagi bosqichi uchun ilmiy qimmatga ega.

Maqola miqyosidagi tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, intervyu, anketa-so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi bir qator usullardan foydalanilgan.

## **NATIJALAR**

Ta'limning mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biridir. Insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" "Qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob izlab kelgan va hamon izlamoqda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tiliga bo'lgan munosabatni yangi bosqichga olib chiqilishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Ona tili ta'limi mazmunining yangilanishi mazkur sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab berdi. Respublikamizning birinchi Prezidenti ta'lim sohasiga oid muammolarga to'xtalib shunday degan edi: "Shu kungacha hech kim boshlang'ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o'qiyotgan o'quvchilarga qaysi sinfdan nimani o'qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtayi nazardan to'la asoslab bergan emas"<sup>5</sup>.

Pedagogika fanlari doktori Q. Husanboyevaning ta'lim mazmuniga o'qituvchini

---

<sup>4</sup> Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 8.

<sup>5</sup> Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олиу Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 уил 29 август. –Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.

ham kiritishi<sup>6</sup> nihoyatda to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Chunki til sathlaridan aynan fonetika va orfoepiyani o'qitishda o'qituvchining roli juda muhim bo'lib, o'quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o'qituvchidan o'rganadilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" darsliklarida sintaksisning o'rganilishi bir qadar yangilangan bo'lsa-da, undagi mavzularni chuqurroq (amaliy ahamiyatli) o'tish uchun zamonaviy yondashuvga ehtiyoj mavjud. Holbuki, o'zbek tilining sintaktik qurilishi o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, uni o'zlashtirish nafaqat xorijliklardan, balki mahalliy o'zbeklar uchun ham tushunishda muammo bo'lib kelmoqda. Zero, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning o'z nutqlarida g'aliz qolipli gaplar, me'yorga bo'ysunmagan talaffuzlardan foydalanishlari kishining g'ashini keltiradi va bu holat ularning adabiy tilning mazmun-mohiyatini yetarli anglamasdan foydalanishi bilan bog'liq.

Gap – kishilarning bir-biriga fikr, axborot uzatish uchun ishlatadigan asosiy birlik bo'lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko'rinishidir. Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi. Kishi ongida fikr tushunchalar asosida tiklanadi. Bu fikr nutqda gap sifatida yuzaga chiqadi. Fikr tushunchalardan tashkil topganligi kabi gap ham tushunchalarning formasi sanalgan so'z va so'z birikmalardan tuziladi. Gapning tashkil etuvchilari so'z birikmalaridir. Gapning ifoda maqsadini o'zgartuvchi vositalar gap tarkibiga kiritilsa ham, sintaktik qurilishiga putur yetkazmaydi (masalan, so'roq olmoshlari, yuklamalar). Egasiz gaplar [Wp] gaplarda kesim tarkibidagi (Pm)ning shaxs-son ma'nosi o'ta kuchsizlanib, gap tarkibidagi eganing mutlaqo bo'lmasligini keltirib chiqaradi. Semantik-funksional shakllangan gap([WP]) ham egasiz gapning alohida ko'rinishi: 1. – Bugun bormoqchimisiz? – Ha. 2. – U ham bormoqchimi? – Albatta. 3. – Kitobni olasanmi? – Bo'lmasam-chi!<sup>7</sup>

Tilshunoslikning "Sintaksis" bo'limi "Ohang va tinish belgilari" va "Orfografiya" bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ularni o'qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Shu nuqtayi nazardan mazkur ishda *mashq* va

6 Хусанбоева Қ. Адабию таълим жарауонида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмиу-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

<sup>7</sup> Sayfullayeva.R., Abuzalova.M, Toirova.G. Sodda gap sintaksisini o'qitishda innovatsiya.(o'quv qo'llanma) Toshkent. 2018-yil, 28-bet.

*topshiriq* atamalariga o‘zgacha yondashish maqsadga muvofiq. Darslik va qo‘llanmalarda ko‘p uchraydigan “mashq”, “topshiriq” atamalari o‘zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo‘q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo‘lgan qator darslik va qo‘llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o‘rnida boshqasining qo‘llanilishi kabi holatlarni ko‘rish mumkin.

Umum ta’lim maktabining 8-sinf “Ona tili” darsliklaridan olingan quyidagi namunalar fikrimizni tasdiqlaydi:

86-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Gap bo‘laklarini aniqlab, tagiga chizing. Ularning qaysi bo‘lakka bog‘lanayotganini ayting.<sup>8</sup>

87-mashq. «Fazilatlar gultoji» mavzusida 5 gapdan iborat ikkita matn yarating. Birinchi matn faqat ega, kesim va holli gaplardan tashkil topsin. Keyingi matnda bu bo‘laklarni to‘ldiruvchi va aniqlovchilar bilan kengaytiring.

Savol va topshiriqlar

1. Afv nima?
2. Inson ko‘ngil xotirjamligi uchun afv afzalmi yoki o‘ch olmoqmi?
3. Gunohkor va kechiruvchining ikkalasi ham qaysi holatda xursand bo‘lishi mumkin?
4. No‘shiravon afv qilmak haqida nima degan?
5. Yana qanday go‘zal fazilatlarini bilasiz?

Keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdiki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning berilishi, mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham “*ajrating*” topshirig‘i berilmoqda.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mashq atamasiga shunday ta’rif berilgan: “**Mashq** 1. [arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti. Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko‘kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro‘parasida kitob o‘qib o‘tirar edi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi

---

<sup>8</sup> Qodirov.M., Ne‘matov.H, Abdiraimov.M., Sayfullayeva.R., Mengliyev.B. Toshkent. 2019-yil, 51-bet

kelgan militsionerlar, – ko‘p mashq ko‘rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo‘lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar. 2. Ma’lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar. Jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan.<sup>9</sup>

“Pedagogika ensiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgan va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin:

Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Mas., o‘qish, yozish. M. ta’limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi<sup>10</sup>.

Topshiriq atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Topshiriq 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig‘i. Topshiriq bermoq. *Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan*”<sup>11</sup>.

Har bir atama fanga o‘zining alohida mazmun-mohiyatiga ega ekanligi uchun qabul qilinishini inobatga olinsa, bu albatta mantiqiy xulosa bo‘ladi. Ya’ni, mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o‘quvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma’lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o‘xshaydi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “Ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд.—Т.: ЎзМЭ, 2004. – 562-б.

<sup>10</sup> Педагогика энциклопедияси. 2-жилд. —Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.

<sup>11</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд.—Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150-б.

koʻzda tutilgan koʻnikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu oʻrinda koʻproq oʻquvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Pedagog olim Gʻofur Hamroyev ona tilini oʻqitishda nafaqat fonetika oʻqitishda, balki tilning barcha sathlarini oʻqitishda *matal, topishmoq, tez aytish, latifa, lof, terma* va *doston* namunalaridan tahlil materialli sifatida foydalanish samaradorlikka erishishda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita boʻlib xizmat qila olishini taʼkidlaydi.

“Ona tili” darsliklarida sintaksisni bilishni koʻnikma sifatida shakllantirish borasida koʻplab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo anʼanaviy usul deb atalayotgan eski usullarda dars mashgʻulotlarini oʻtish va shunday yondashuv bilan qoʻshimcha mashq va topshiriqlar tayyorlash turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

Gap sintaksisiga doir oʻquv materiallarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlilidan kelib chiqib bu boradagi muammolarni atroflicha oʻrganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

## **MUHOKAMA**

Umumiy oʻrta taʼlim bosqichida oʻquvchilarni ona tili oʻquv predmeti asosida mustaqil ishlashga, oʻz fikrini ogʻzaki va yozma shakllarda ravon va taʼsirchan ifodalay olish koʻnikmalarini shakllantirish bugungi taʼlim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, oʻquvchilarni maʼrifatli, bir soʻz bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, koʻnikma va malakalar sohibi boʻlishi muhimligini taʼkidlash lozim. Jumladan, umumtaʼlim maktablarining 8-sinf oʻquvchilarida ona tili fani, xususan, sodda gap sintaksisi boʻlimi orqali adabiy tilni ogʻzaki va yozma nutqini ifodalash uchun puxta bilimga ega boʻlish, toʻgʻri yozish(imlo qoidalari)ni koʻnikma sifatida shakllantirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga oʻrgatish, jozibali ogʻzaki va yozma nutqning asosi boʻlgan soʻz boyligini oshirish bugungi ona tili taʼlimining mazmuni va maqsadini tashkil etadi. Uni amalga oshirish ona tili taʼlimi oldiga zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish, innovatsion loyihalar yaratish muammosini ham qoʻymoqda. Shu jihatdan olib qaraganda umumiy oʻrta taʼlim yoʻnalishida tadqiq qilinishi lozim boʻlgan muhim masalalar tizimida oʻquvchilarda fonetikaga oid oʻquv materiallar asosida mustaqil, ijodiy fikrlash hamda oʻz fikrini nutq sharoitiga mos holda toʻgʻri va ravon

ifodalash malakasini shakllantirish hamda takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko'rish muhim pedagogik muammodir.

Albatta, darsliklarda berilgan ma'lumotlar juda muhim, biroq ko'zlangan maqsadga erishish uchun buning o'zi yetarli emas. Darsni puxta o'tish va tushuntirish uchun o'qituvchining qo'shimcha ishlashi talab etiladi. Yuqorida darsliklar va Oliy ta'limga kirish uchun tayyorlanadigan testlarning asosan o'quvchilarning lingvistik bilim va mexanik xotirasiga ko'ra tekshirishi haqida ta'kidlagan edik. Grammatikani mutlaq chiqarib tashlashdan xoli bo'lgan bir holatda Grammatik bilim bilan birga nutqiy bilimlarini, tildan foydalanish, so'z tanlash kabi malakasini ham oshirish va tekshirishga (baholash) o'tish fursati allaqachon yetib kelgan deb hisoblaymiz.

Grammatika tilning asosiy sathi ekanligi sababli undan to'g'ri va qulay foydalanish uchun grammatik minimumni ham ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud. Sodda gap mavzusi ona tili umumta'lim maktablarining 8-sinf darsligida "5-bo'lim. Sodda gap sintaksis" nomi bilan berilgan bo'lib, 35-57-darslarda berilgan. Aslida bu mavzular va ularda berilgan mustahkamlovchi manbalarining o'zi avvalgi darsliklarga nisbatan ancha farq qilgani holda innovatsion ta'minot hisoblanadi. Shu maqsadda mavzuga oid test va materiallardan namunalarni taqdim etamiz:

### **GAP HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT**

**Gap** bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Ya'ni kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'no turi bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi. Gapning gap bo'lmagan boshqa sintaktik birliklardan (masalan, so'z birikmasidan) farqi **kesim va ega yoki faqat kesim** bo'laklariga aloqador grammatik asos (kesim)ga egaligi bilan farq qiladi, so'z birikmasi tushunchani, gap esa fikrni **ifodalaydi**.

Xuddi shu tarzda qisqa ma'lumotlar va testlar berib boriladi.

Nuqtalar o'miga mosini qo'ying. Gap ...ni **ifodalaydi**.

**tushuncha**

**fikr**

Grammatik asosda gapning fikriy mundarijasi ifodalanadi. Bu fikriy mundarija fe'l kesimning mayl va zamon ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, **Bolalar ishlayaptilar. Ozoda rasm chizmoqda** gaplari ish-harakatning hozirgi zamonda bo'layotganidan darak bersa, **Bolalar ishladi. Ozoda rasm chizdi** gaplari esa ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lganidan darak beradi. **Siz dalaga borasizmi? Sen hikoyani o'qidingmi?** gaplari o'tgan zamonda bo'lgan ish-harakat haqida so'roqni bildiradi. **Siz she'rni o'qing. Siz shu ishni bajarib qo'ysangiz** gaplari istak-buyruq ma'nosiga ega.

Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan, ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi.

Biz morfologiya bo'limida o'rgangan kelishik, egalik, zamon va shaxs-son qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchi va bog'lovchilar sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim hollarda gapdagi so'zlar **tartib va ohang yordamida ham o'zaro bog'lanadi**. Bunday bog'lanishlar **grammatik bog'lanish** ham deb yuritiladi. Masalan: *Oq paxtalar ochildi, Teraylik quv nab-quv nab.* (*Qo'shiq*) Bu gapda oq va paxtalar so'zlari bir-biri bilan so'z tartibi orqali bog'langan.

**Kelishik, egalik, zamon va shaxs-son qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchi va bog'lovchilarning sintaksisdagi vazifasi qanday?**

sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.

sintaksisda hech qanday vazifa bajarmaydi.

Har bir gap biror maqsadni, mazmunni ifodalaydi. Og'zaki nutqda ana shu mazmunga mos keladigan tugal ohang bo'ladi. Ohang ayni bir vaqtda gaplarni bir-biridan ajratib ham turadi.

Ohang gap uchun eng muhim belgidir. Ayrim so'z (*Kuz. Tong.*) yoki so'z *birikmalarini tugallik ohangi bilan aytsak, gap yuzaga keladi va biror fikr – maqsad anglashiladi*: *Ko'm-ko'k dala. G'arbiy chegaralardan biri.*

Ayni bir sodda gapning ohangini o'zgartirish orqali ba'zan uch xil mazmun ifodalash mumkin: *Buvijonim keldilar. – Buvijonim keldilar! – Buvijonim keldilar?* (Bu ma'lumotni video yoki audio ko'rinishida tashlash maqsadga muvofiqdir.)

Yozma nutqda ana shu ohangga qarab har bir gap oxiriga yo nuqta, yo so'roq, yoki undov belgisi qo'yiladi.

## **GAPNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI**

Nutqimizdagi gaplar bir yoki ikki grammatik asosdan, ba'zan esa ikkitadan ortiq grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplar ikkiga bo'linadi:

## **1) SODDA GAPLAR;**

## **2) QO'SHMA GAPLAR.**

*Grammatik asosi (kesimi) bitta bo'lib, ma'lum bir fikrni (ba'zan unga qo'shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar sodda gap* deyiladi: **Shahnoza o'qidi. Shahnoza kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni hayajon bilan o'qidi. Bu shaharda tanish-bilish yo'qligi Mirzayevga shu bugun bilindi.**

*Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gap qo'shma gap* deyiladi: **Shu payt eshik ochildi va hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi. (L. R.)Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar. (Maqol) Odam borki, odamlarning naqshidir. (Navoiy) – Kampirning ko'zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi. (O.)**

**Esga oling.** Sodda gap tarkibida kesimlik shakllariga ega bo'lgan bitta kesim bo'ladi. Sodda gap tarkibidagi barcha bo'laklar shu kesimi atrofida birlashadi. Qo'shma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq (uyushmagan) kesim bo'ladi.

1. Ritorik so'roq gapni toping.

A) Umuman, savdo-sotiq ayollarga xos kasbmi, nima deysiz?

B) Umr o'rtasida poytaxtga ko'chib kelishiga nima majbur qildi?

**C) O'qishga kirolmasa, shu ham fojiami?**

D) U yerga kim bilan bormoqchisan?

2. O'zaro grammatik munosabat qaysi birliklarda bo'ladi?

A) gapdagi so'zlar orasida

B) so'z birikmasida

C) qo'shma so'zlarda

**D) A va B**

3. Ritorik so'roq gapni toping.

A) O'qish qachon boshlanadi?

B) Dadang qayerga borib kelganini aytaymi? – deb qoldi.

C) Salomat yuribsizmi, Bahromjon?

**D) Sut ko'r qilgur haromi. Gitler oqpadar, Farzandning qadrini qayerdan bilsin?!**

4. -mi, -chi, -a, -ya yuklamalari yordamida qanday gap tuziladi?

A) buyruq gap

B) his-hayajon gap

C) darak gap

**D) so‘roq gap**

5. Qaysi gapni so‘roq olmoshi yordamida ritorik gapga aylantirish mumkin?

A) Tog‘ orqasidan shamol ko‘tarildi.

B) Osmonda yulduzlar chamani porlaydi.

**C) Tinch uyda janjal bo‘lishini istaydi.**

D) Siz odamlarni yaxshi bilasiz.

**Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda (1) va qo‘shma gaplarga (2) ajratib ko‘chiring.**

*Qimirlagan qir oshar. (...)*

**Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda (1) va qo‘shma gaplarga (2) ajratib ko‘chiring.**

*Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi. (...)*

**Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda (1) va qo‘shma gaplarga (2) ajratib ko‘chiring.**

*Mard bir o‘lar, nomard yuz o‘lar. (...)*

**Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda (1) va qo‘shma gaplarga (2) ajratib ko‘chiring.**

*Nizomjon konvertni dadasining qo‘liga berdi-yu, g‘izillaganicha chiqib ketdi. (...)*

**Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda (1) va qo‘shma gaplarga (2) ajratib ko‘chiring.**

*Go‘yo hayot tamomila uxlaganday, hamma yoq jimjit edi. (...)*

**Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda (1) va qo‘shma gaplarga (2) ajratib ko‘chiring.**

*Xalil ota halol va mehnatsevar kishiga xos izzat-obro‘cini va qadr-qimmatini chuqur tushuntirdi. (...)*

## **XULOSA**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarida sintaksisning o‘rganilishi bir qadar yangilangan bo‘lsa-da, undagi mavzularni chuqurroq (amaliy ahamiyatli) o‘tish uchun zamonaviy yondashuvga ehtiyoj mavjud. Holbuki, o‘zbek tilining sintaktik qurilishi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, uni o‘zlashtirish nafaqat xorijliklardan, balki mahalliy o‘zbeklar uchun ham tushunishda muammo bo‘lib kelmoqda. Zero, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning o‘z nutqlarida g‘aliz qolipli gaplar, me’yorga bo‘ysunmagan

talaffuzlardan foydalanishlari kishining g'ashini keltiradi va bu holat ularning adabiy tilning mazmun-mohiyatini yetarli anglamasdan foydalanishi bilan bog'liq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. –14-b.
2. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олиу Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 уил 29 август. –Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.
3. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Buxoro, 1994. – B. 22.
4. Ne'matov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro: NS, 2003. – B. 21.
5. Qodirov.M., Ne'matov.H, Abdiraimov M., Sayfullayeva.R., Mengliyev.B. Toshkent. 2019-yil, 51-bet
6. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 8.
7. Sayfullayeva.R., Abuzalova.M, Toirova.G. Sodda gap sintaksisini o'qitishda innovatsiya.(o'quv qo'llanma) Toshkent. 2018-yil, 28-bet.
8. Педагогика энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати . 5 жилдлик. 2-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004. – 562-б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150-б.
- 11.Хусанбоева Қ. Адабиу таълим жарауонида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмиу-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.